

QORAQOLPOG’ISTON SHAROITIDA SARIMSOQ PIYOZ YETISHTIRISHNI YO’LGA QO’YISH

Sherimov Dilshodbek Shavkat o’g’li

*Qoraqolpog’iston qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalari institute
tayanch doktoranti*

Bizga ma’lumki kunlik ratsionimizda sabzavotlar juda muhim o’rinni egallaydi. Sabzavotlarning to’yimliliği ular tarkibidagi uglevodlar, oqsillar, yog’lar va boshqa moddalarning miqdori bilan aniqlanadi. Sabzavotlar tarkibi asosan suvdan (65-96 %) iborat bo’lib, quruq moddalar bodring, pomidor va tarvuzda – 4-7 %, ildizmevalilarda – 11-17%, faqat ko’k no’xatda – 20%, sarimsoq piyozda – 35 % gacha bo’ladi. Shuning uchun sabzavotlarning to’yimlilik qiymati yuqori emas: bir kilogram eng ko’p iste’mol qilinadigan sabzavotlarda 150 – 400 kkal yoki 600 – 1700 kJ quvvatga ega. Sabzavotlar oziq-ovqat sifatida organizmning energiyaga bo’lgan talablarini qondira olmaydi (insonning kundalik talabi 8-17 ming kJ yoki 2-4 ming kkal). Biroq ular qo’shimcha karbon suvlari, oqsillar va moylar manbai bo’lib xizmat qiladi.

Shunga qaramasdan kishilarning hayotida sabzavotlarning ahamiyati juda kattadir. Ularning tarkibida 50 dan ortiq foydali elementlar bor. Sarimsoq piyoz ham sabzavotlar ichida tarkibida foydali vitaminlarning bo’lishi bilan boshqalaridan ajralib turadi shifobaxshligi bilan oldingi o’rinlarni egallaydi. Xususan tarkibida bakteritsid ya’ni yemiruvchi xususiyatga ega bo’lgan fitonsid mavjud. Undan tashqari quvvatni oshirish xususiyatiga egadir. Bunda Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining 2021-2022 yillari hosili uchun avgust piyozi, sarimsoq piyozi va to’qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini ishlab chiqish bo’yicha ko’plab takliflar berilgan. Yana qarorda shunga alohida to’xtatilib o’tilgan-ki, avgust piyozi, sarimsoq piyozi va to’qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish bilan shug’ullanayotgan fermer, dexqon va tomorqa yer egalariga yer ajratish bo’yicha yengilliklar yaratish, ularni qo’llab quvvatlash bo’yicha uzoq muddatli bank kreditlarini taqdim qilish eng asosiysi sarimsoq piyoz ustida loyixalar ishlab chiqish ularni moliyalashtirish, ya’ni ilmiy tadqiqot ishlariga ichki va xalqaro davlat grantlarini ajratish, o’zini oqlagan loyixalarni amaliyotga va ishlab chiqarishga undan tashqari hozirgi paytda eng ko’p mahsulot yetishtirish bo’yicha fermer, dexqon va tomorqa yer egalariga sabzavotchilik tavsiyanomlarini berish va boshqa ko’plab qonuniy va tartibli ishlar aytib o’tilgan. Aholini kelgusida sifatli va to’yimli ozuqalar bilan ta’minlash kelgusida murakkablashib boradi albatta tabiiy turda insonlar ozuqaga bo’lgan talabini sabzavotlar bilan to’yintirishi bunga yechim bo’la oladi. Sarimsoq piyoz undan tashqari inson organizmini yuqumli kasalliklardan himoyalash funksiyasi bo’lganligi sababdan kelajakda ham bu mahsulotga talab ayni vaqtdagidek yuqori

bo'ladi. Sarimsoq piyoz respublikamizda asosan paxta va g'alla maydonlaridan keyin joylashtiriladi, ayni vaqtda uni takroriy maydonlarga yetishtirish ham yo'lga qo'yilmoqda. O'tgan yillarda sarimsoq piyozdan respublikamizdan yuqori hosil olingan misol uchun 2021-yilda sarimsoq piyozdan fermer xo'jaliklarida 1728553 tonna, aholi tomorqalarida 2286732 tonna hosil olingan. 2022-yilda 2413855 t hosil olish re'ja qilingan bo'lsa shundan 12224 tonnasi Qoraqolpog'iston respublikasi hisobiga to'g'ri keladi.

Qoraqolpog'iston respublikasi boshqa viloyatlarga qaraganda murakkab tuproq iqlim sharoitiga ega bo'lib bu yerda dehqonchilik qilish xususan sarimsoq piyoz yetishtirish ham o'ziga xos bo'lgan ilmni talab qiladi. Ya'ni respublika iqlim sharoitiga ko'ra yozi juda issiq, qishi esa juda sovuq bo'lishi kuzatiladi. Respublikada so'ngi yillarda sarimsoq piyoz yetishtirishga katta ahamiyat berilib, ammo, ilmiy asoslangan yetishtirish texnologiyalar mavjud emasligi sababli ushbu tadqiqot doirasida sarimsoq piyozning yuqori hosilli urug'lari va piyozchalari katta bo'lgan yetishtirishning ayrim elementlarini ishlab chiqishini maqsad qilib qo'yiladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan tarzda Qoraqolpog'iston sho'rlangan tuproq iqlim sharoitlarida sarimsoq piyozni ekib yetishtirishda ilmiy asoslangan tarzda ekish muddatlari, usullari va ekish sxemalari va boshqa texnologik elementlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Sarimsoq piyozni ilmiy asoslangan turda yetishtiriladigan bo'lsa yuqori hosil olinishi mumkin. Ya'ni bunda hududning tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqish, ekish muddatlarini va usullarini ishlab chiqish ekishga mo'ljallangan navlar bilan boyitib borish ko'zda tutiladi. Albatta bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yib boorish qishloq xo'jaligi sohasining jadal rivojlanishi va bozorlarda mahsulotlarning ko'p bo'lishi natijada bo'lsa aholining dasturxonini to'kin bo'lishiga erishilishiga zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sarimsoq piyoz hamda to'qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 2020-yil 15-oktabrdagi PQ 4863-sonli qarori.
2. “Meva – sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi 2021-yil 15-dekabrda PQ 52-sonli.
3. “Sabzavotchilik va polizchilik” Zuev Vladimir Ilich, Qodirxo'jaev Orif, Adilov Maxsud Mirvasitovich, Akramov Umidilla Ikramdjanovich Toshkent. 2010-y.